



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
geografiya fani o'qituvchisi

\_\_\_\_\_ning  
20\_\_-20\_\_-o'quv yilida  
9-sinflar IV chorak uchun geografiya  
fanidan

# DARS

# ISHLANMALAR

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘** \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili 9-sinflar uchun geografiya fanidan taqvim mavzu rejasi**

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Soati	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Fors qo‘ltig‘i Arab davlatlari	1		
2.	Indoneziya, Malayziya, Singapur davlatlari	1		
3.	Afrika qit‘asining geografik o‘rni, siyosiy xaritasi	1		
4.	Afrika mamlakatlari aholisi va xo‘jaligi. Janubiy Afrika Respublikasi	1		
5.	Nigeriya Federativ Respublikasi/Misr Arab Respublikasi	1		
6.	<b>7-Nazorat ishi</b>	1		
7.	Avstraliya Ittifoqi	1		
8.	Amerikaning siyosiy xaritasi. Amerika Qo‘shma Shtatlari			
9.	Amerika Qo‘shma Shtatlari xo‘jaligi va iqtisodiy rayonlari	1		
10.	Kanada/Braziliya	1		
11.	<b>8-Nazorat ishi</b>	1		
12.	Umumlashtiruvchi takrorlash	1		
<b>Izoh:</b>	<b>Loyiha ishi uchun namunaviy mavzular:</b>			
1.	“Boy davlat – baxtli davlatmi?” (O‘quvchilar YIM (ya’ni GDP) yuqori bo‘lgan davlatlar bilan Baxt indeksi yuqori bo‘lgan davlatlarni taqqoslaydi. Nega ularning farqi bor?)			
2.	“Iqlim o‘zgarishi kimga qimmatga tushyapti?” (Iqlim o‘zgarishidan eng ko‘p zarar ko‘rayotgan davlatlar (Bangladesh, Maldiv orollari, Afrika davlatlari kabilar) va nega bu holat adolatsiz bo‘lishi mumkinligini tahlil qilish)			
3	“Tabiiy boyliklar: nega ba’zilar rivojlanib, ba’zilar qashshoqlikka botmoqda?” (Nigeriya, Angola kabi neftga boy ammo kambag‘al davlatlar bilan, Yaponiya kabi resurssiz rivojlangan davlatlarni taqqoslash)			

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Fors qo'ltig'i Arab davlatlari**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga jahon va uning ayrim qismlariga xos betakror geografik xususiyatlarni ko'rsatib berish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayoni va qonuniyatlari haqida batafsil ma'lumot berish

**Tarbiyaviy maqsad:** jahon va uning yirik mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir zamonaviy bilim berish, mustaqil bilim olishga va uni amaliyotda qo'llashga o'rgatish.

Yer yuzasining katta qismlari qanday qilib tasvirlanishini va ulardan qanday foydalanish mumkinligini, yer yuzining tabiati, aholisi, uning xo'jaligini, insonning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalarini tushuntirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** jahonning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va xo'jaligi haqidagi umumiy ilmiy tasavvurni shakllantirish, jahonning yirik mintaqalari - Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika va Avstraliyaning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib berish

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: :**

geografik adabiyotlardan samarali foydalana olish, ular asosida mavzuli axborotlarni tayyorlay olish, ommaviy axborot vositalari hamda Internet-saytlardan geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlarni topa olish va ularni tahlil qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

dolzarb global, regional va mahalliy muammolarni tahlil qilish, ularning yechimiga oid ijodiy takliflarni ishlab chiqish, zamon va jamiyat talabidagi iqtisodiy, siyosiy va ekologik faollikka intilish va ahamiyatini anglash.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, interfaol.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

**Texnik jihozlar:** proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

**Darsning metodi:** og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vaqt</b>
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Ma'lumki, jahon energetika xo'jaligida Fors qo'ltig'i mintaqasi alohida o'ringa ega. Fors qo'ltig'i atrofida 8 ta davlat joylashgan bo'lib, ulardan 6 tasi - Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari

(BAA), Ummon, Qatar, Kuvayt, Bahrayn - tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, demografik va milliy-madaniy jihatdan bir-biriga ancha o'xshaydi. Bu mamlakatlar guruhi Fors qo'ltig'i arab davlatlari

deb ataladi. Fors qo'ltig'idagi kichik orollarda joylashgan Bahrayndan tashqari, shu guruhdagi barcha davlatlar Arabiston yarimorolida joylashgan. Mintaqa iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi uchta qit'a - Osiyo, Afrika va Yevropa tutashgan hududda, xalqaro ahamiyatdagi dengiz y o'llari bo'yida joylashganligi bilan belgilanadi. Fors qo'ltig'i arab davlatlari maydoni va aholisi soni jihatdan bir-biridan farq qiladi (11-jadval). Mintaqadagi hududiy va demografik salohiyati bo'yicha eng yirik davlat - Saudiya Arabistoni. Qatar, Kuvayt va Bahrayn esa kichik mamlakatlar hisoblanadi.

Fors qo'ltig'i arab davlatlarining barchasi monarxiya boshqaruv shakliga ega. Saudiya Arabistoni, Qatar, Ummon - mutlaq monarxiyalar, Kuvayt va Bahrayn - konstitutsion monarxiyalar, BAA esa har biri mutlaq monarxiya hisoblanadigan yettita amirlik federatsiyasi bo'lib, davlat tuzumida mutlaq va konstitutsion monarxiya elementlari uyg'unlashgan.



69-rasm. Arabiston yarimorolidagi cho'l landshafti.

### Fors qo'ltig'i arab davlatlari haqida umumiy ma'lumotlar

Davlat	Poytaxt	Maydoni (ming km <sup>2</sup> )	Aholisi (mln. kishi, 2018-y.)
Bahrayn	Manama	0,7	1,5
Birlashgan Arab Amirliklari	Abu-Dabi	83,6	9,5
Kuvayt	Al-Kuvayt	17,8	4,2
Qatar	Doxa	11,4	2,7
Saudiya Arabistoni	Ar-Riyod	2150	33,4
Ummon	Maskat	309,5	4,7

**Tabiiy sharoiti va resurslari.** Arabiston yarimoroli relyefida tekislik va yassi tog'liklar asosiy o'rin egallaydi. Iqlimi tropik, yil bo'yi issiq va quruq. Yozda kunduzi havo harorati odatda +50oC dan yuqori bo'ladi, kechasi esa 0oC gacha tushishi mumkin. Yillik yog'in miqdori 100 mm ga yetmaydi. Fors qo'ltig'i mintaqasida asosiy tabiat zonasi tropik cho'llardir(69-rasm).

Fors qo'ltig'i davlatlarining asosiy tabiiy boyligi ulkan neft va gaz zaxiralari hisoblanadi. Neft zaxiralari bilan, ayniqsa, Saudiya Arabistoni, Kuvayt va BAA, tabiiy gaz zaxiralari bilan esa Qatar, Saudiya Arabistoni va BAA ajralib turadi.

Iqlimning qurg'oqchilligi tufayli suv resurslari taqchilligi mavjud. Arabiston yarimorolida doimiy oqar suvlar y o'qligi sababli qadimdan yerosti suvlari asosiy suv manbai sifatida xizmat qilgan. Hozirgi sharoitda suv bilan ta'minlanishda dengiz chuchuklashtirish katta ahamiyat kasb etadi (70-rasm).



70-rasm. Dengiz suvini chuchuklashtiradigan korxonalar.

Daryolar faqatgina yomg'irlar yog'anda suvga to'ladigan o'zanlar - vodiylar ko'rinishiga ega.

**Aholisi.** Fors qo'ltig'i arab davlatlari aholisining muhim xususiyati xorijiy migrantlarning katta ulushidir. Ummonda xorijiy ishchilar aholining 25 % ini, Saudiya Arabistonida 30 % ini tashkil etsa, boshqa davlatlarda bu ko'rsatkich 50 % dan yuqori, BAAda esa 90 % ga yaqin. Xorijiy migrantlar asosiy qismini Janubiy Osiyo va Shimoliy Afrika davlatlarining fuqarolari tashkil etadi. Aholining tabiiy o'sishi Saudiya Arabistoni va Ummonda yiliga 1,61,8 %, qolgan davlatlarda esa 0,8-1,3 % ga tengdir.

Mintaqa davlatlariga shahar aholisining juda yuqori ulushi xos. Ummonda urbanizatsiya darajasi 75 %, Saudiya Arabistoni va

BAAda 80 % dan yuqori, Kuvayt, Qatar va Bahraynda esa deyarli 100 % ga teng. Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Kuvaytda sunna, Bahraynda shia, Ummonda ibodiy musulmonlari ko'pchilikni tashkil etadi. Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina butun dunyo musulmonlari uchun muqaddas shaharlar hisoblanib, har yili u yerga 2 mln. kishi haj safarini amalga oshiradi (71-rasm).

**Iqtisodiyoti.** Fors qo'ltig'i arab davlatlari iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YIM hajmi bo'yicha mintaqa mamlakatlari jahondagi yetakchi

o'rinlarda turadi.

Iqtisodiyotining tayanch tarmog'i - neft va gaz sanoati. Neft va gaz eksporti mintaqa davlatlari uchun eng muhim daromad manbai hisoblanadi. Energiya manbalari bilan yaxshi ta'minlanganligi hisobiga mintaqa davlatlarida kimyo va neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya sanoati rivojlanmoqda. Dehqonchilikning rivojlanishi suv resurslarining yetishmovchiligi bilan cheklangan. So'nggi vaqtlarda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini keng qo'llashga e'tibor qaratilmoqda. An'anaviy ravishda asosiy qishloq xo'jalik ekini xurmo palmasi hisoblanadi. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari qo'ychilik, echkichilik va tuyachilik hisoblanadi. Mintaqa davlatlarida, shuningdek, bank-moliya sektori, tranzit savdo va turizm ham rivojlanib bormoqda.



71-rasm. Makka shahridagi muqaddas Ka'ba qadamjosi.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. Fors qo'ltig'i arab davlatlarining siyosiy tuzumida qanday umumiy jihat bor?
2. Fors qo'ltig'i arab davlatlarida urbanizatsiyaning yuqori darajasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
3. Mintaqa davlatlarida neft-gaz sanoatidan tashqari iqtisodiyotning qanday tarmoqlari rivojlanib bormoqda?

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** Arabiston yarimoroli tabiiy sharoiti va resurslarining kuchli va kuchsiz tomonlarini taqqoslang.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Indoneziya, Malayziya, Singapur davlatlari**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga jahon va uning ayrim qismlariga xos betakror geografik xususiyatlarni ko'rsatib berish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayoni va qonuniyatlari haqida batafsil ma'lumot berish

**Tarbiyaviy maqsad:** jahon va uning yirik mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir zamonaviy bilim berish, mustaqil bilim olishga va uni amaliyotda qo'llashga o'rgatish.

Yer yuzasining katta qismlari qanday qilib tasvirlanishini va ulardan qanday foydalanish mumkinligini, yer yuzining tabiati, aholisi, uning xo'jaligini, insonning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalarini tushuntirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** jahonning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va xo'jaligi haqidagi umumiy ilmiy tasavvurni shakllantirish, jahonning yirik mintaqalari - Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika va Avstraliyaning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib berish

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

o'zining mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, o'z g'oyalari taqdim va himoya qila olish, guruhlarda ijodiy tarzda ishlay olish. Dunyoning yirik shaharlari va ular haqida xorijiy tillarda ma'lumot bera olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: :**

geografik adabiyotlardan samarali foydalana olish, ular asosida mavzuli axborotlarni tayyorlay olish, ommaviy axborot vositalari hamda Internet-saytlardan geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlarni topa olish va ularni tahlil qila olish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, interfaol.

**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

**Texnik jihozlar:** proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

**Darsning metodi:** og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vahti</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Indoneziya Janubi-sharqiy Osiyoda, Tinch va Hind okeanlari orasida joylashgan bir necha ming orollardan iborat davlat. Jahondagi orol mamlakatlaridan eng yirigi hisoblanadi. Indoneziyadagi eng katta orollar - Yangi Gvineya (g'arbiy qismi), Kalimantan (markaziy va janubiy qismi), Sumatra, Yava hamda Sulavesi. Aholisining 60 % ga yaqini Yava orolida yashaydi. Bu orol



sayyoramizdagi aholi eng zich joylashgan hududlardan biri hisoblanadi. Indoneziya poytaxti Jakarta shahri ham Yavada joylashgan. Iqtisodiy geografik o‘rning qulayligi ikki okean (Tinch va Hind) va ikki qit‘a (Osiyo hamda Avstraliya va Okeaniya) orasida joylashganligi bilan belgilanadi. **Tabiiy sharoiti va resurslari.** Indoneziya hududi “Tinch okean olovli halqasi”ning bir qismi bo‘lib, unga tog‘li relyef va yuqori seysmiklik xos. Indoneziyada 150 taga yaqin harakatdagi vulqonlar bor, ulardan eng yiriklari Bromo, Krakatau, Selak, Tamboro hisoblanadi. Indoneziya neft, gaz, ko‘mir, qalayi, temir, marganes, nikel va boshqa foydali qazilmalarga boy. Iqlimi, asosan ekvatorial, yil bo‘yi issiq va nam, yil fasllari orasidagi

tafovutlar deyarli sezilmaydi. Sernam iqlim va tog‘li relief tufayli Indoneziya suv va gidroenergetika resurslari bilan yaxshi ta’minlangan. Shuningdek, Indoneziya jahonning o‘rmon resurslariga eng boy davlatlaridan biri hisoblanadi.

**Aholisi.** Indoneziya aholi soni bo‘yicha dunyoda Xitoy, Hindiston va AQSHdan keying 4-o‘rinni egallaydi. Indoneziya aholisining yarmidan ko‘prog‘i shaharlarda istiqomat qiladi. Mamlakatda 10 tadan ziyod “millioner” shahar mavjud, eng yirigi - Jakartada 10 mln. kishi istiqomat qiladi. Indoneziyada 300 taga yaqin millat va elatlar yashaydi. Mamlakat aholisining 40 % idan ko‘prog‘ini yavaliklar tashkil etadi (72-rasm). Asosiy dini - islom dini bo‘lib, Indoneziya musulmonlar soni bo‘yicha jahon mamlakatlari orasida birinchi o‘rinda turadi.

**Iqtisodiyoti.** Indoneziya YIM hajmi bo‘yicha jahonning 10 ta peshqadam davlat qatoriga kiradi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari - yoqilg‘I (ko‘mirni qazib olish bo‘yicha jahonda 5-o‘rin, tabiiy gazni qazib olish bo‘yicha 10-o‘rin), kimyo, oziq-ovqat, yengil, avtomobilsozlik, o‘rmon, metallurgiya (qalayini qazib olish bo‘yicha jahonda 1-o‘rin). Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari qatoriga sholi, makkajo‘xori, kokos palmasi, tabiiy kauchuk, choy, kofe, shakarqamish, kakao, tamaki, turli



72-rasm. Yavaliklar.

ziravorlar kiradi. Indoneziya ko‘p ekinlarning yalpi hosili bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Baliq ovlash bo‘yicha jahonda 3-o‘rinda turadi. Malayziya hududi Janubiy Xitoy dengizi bilan bir-biridan ajralib turgan ikkita qismdan iborat. Bitta qismi Malakka yarimorolining janubini egallasa, ikkinchisi Kalimantan orolining shimoliy qismida joylashgan. Malayziyaning yarimorol qismi yonidan Hind va Tinch okeanlarini tutashtiruvchi dengiz yo‘llari o‘tadi. Boshqaruv shakli - konstitutsion monarxiya. Malayziya 13 ta shtat va 3 ta federal hududni birlashtiruvchi federativ davlat. 9 ta shtati mahalliy monarxlar tomonidan boshqariladi hamda har 5 yilda ular o‘z oralaridan bir



hukmdorni rahbari - qirol lavozimiga saylaydi. **Tabiiy sharoiti va resurslari.** Malayziya relyefining xususiyatlariga ko‘ra tog‘li mamlakat. Asosiy foydali qazilmalari neft, qalayi, volfram, boksit, oltin, mis hisoblanadi. Neft, asosan mamlakatning orol qismidagi dengiz sayozligidan qazib olinadi. Iqlimi ekvatorial, yil davomida issiq va seryog‘in. Bunday iqlim tufayli Malayziyada sersuv daryolar ko‘p. Suv toshqinlari mamlakat aholisiga katta zarar yetkazadi. Mamlakat hududining salkam 60 % ini o‘simlik va hayvonot olami juda boy bo‘lgan ekvatorial o‘rmonlar qoplaydi (73-rasm). **Aholisi.** Malayziya aholisi tabiiy va migratsion ko‘payish hisobiga tez o‘smoqda. Urbanizatsiya darajasi 75 %, eng yirik shahar – mamlakat poytaxti Kuala-Lumpur. Mamlakat aholisi hududiy jihatdan juda notekis joylashgan. Hududining 40 % ini egallagan yarimorol qismida mamlakat aholisining 80 % i istiqomat qiladi. Ayniqsa dengizbo‘yi hududlarida aholi zich darajada joylashgan. Mamlakat ichki qismidagi tog‘li hududlarda aholi ancha siyrak joylashgan. Malayziyadagi eng yirik millat mamlakat aholisidagi ulushi 50 % dan ziyod bo‘lgan malaylardir. Shuningdek, Malayziyada xitoyliklar, hindlar, Kalimantan orolining tub elatlari vakillari ham ancha ko‘p. Keng tarqalgan din - islom, mamlakat konstitutsiyasiga binoan, davlat dini maqomiga ega. Ammo Malayziyada buddizm, induizm, xristianlik dinlari ham ma’lum darajada uchraydi.

**Iqtisodiyoti.** Malayziya iqtisodiyoti yuqori sur'atlar bilan o'sayotgan yangi industrial mamlakatlardan biri. Malayziya sanoati, asosan ko'ptarmoqli mashinasozlikka ixtisoslashgan (elektronika, maishiy texnika, avtomobil ishlab chiqarish). Shu bilan birga, neft, neft-kimyo va metallurgiya sanoatlari ham yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligi sholi, tabiiy kauchuk, moyli palma, kokos palmasi, banan, tamaki, murch va boshqa ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan.

Malayziyaning tabiati va boy tarixiy-madaniy merosi mamlakatda turizmni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. So'nggi yillarda Malayziya xorijiy sayyohlar sonining ko'pligi bo'yicha jahonning yetakchi 10 ta mamlakatlari qatoriga kirmoqda.



73-rasm. Malayziya o'rmonlari.



Maydoni – 0,7 ming km<sup>2</sup>.  
Aholisi (2018-y.) – 5,8 mln.  
Poytaxti – Singapur.

Singapur Janubi-sharqiy Osiyoda, Malakka yarimorolining janubiy chekkasidan tor bo'g'oz bilan ajralib turgan kichik orollarda joylashgan. Singapur Osiyo va butun jahondagi eng kichik davlatlardan biri bo'lib, to'liq ravishda bitta shahardan iborat. Singapur serqatnov dengiz y o'llari bo'yida joylashganligi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga ega. Boshqaruv shakli jihatidan parlamentar respublikadir. Davlatning siyosiy boshqaruv tizimida asosiy rolni bosh vazir o'ynaydi.

**Tabiiy sharoiti va resurslari.** Singapurning relyefi pasttekislik ko'rinishiga ega bo'lib, mamlakatning eng baland nuqtasi dengiz sathidan bor-yo'g'i 166 metrda joylashgan. Singapur hech qanday

foydali qazilmalariga ega emas. Singapur ekvator chizig'iga juda yaqin joylashgan va uning iqlimi tipik ekvatorial xarakterga ega. Iyul va yanvar oylarining o'rtacha haroratlari 20 C ga farq qiladi, xolos.

Hududi kichikligi hisobiga Singapur ichimlik suvi bilan yetarli darajada ta'minlanmagan va uni, asosan Malayziyadan import qilishga majbur. **Aholisi.** Singapur aholi zichligi bo'yicha dunyoda Monakodan keying 2-o'rinda turadi. Singapur butunligicha bitta shahardan iborat bo'lganligi uchun urbanizatsiya darajasi 100 % teng. Singapur Osiyoning aholi tabiiy ko'payishi eng past bo'lgan davlatlardan biridir va aholisi, asosan tashqi migratsiya hisobiga o'smoqda. Singapur aholisining 75 % dan ortig'ini xitoyliklar tashkil qiladi. Malaylarning ulushi 15 % atrofida, hindlarga esa aholining 8 % I to'g'ri keladi. Rasmiy tillari - ingliz, xitoy, malay, tamil. Eng ko'p tarqalgan dinlar buddizm va konfutsiylik.

**Iqtisodiyoti.** Nisbatan qisqa tarixiy davr ichida Singapur jahondagi texnologik va iqtisodiy jihatdan peshqadam davlatlardan biriga aylandi. Hozirgi bosqichda Singapur aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YIM miqdori bo'yicha jahon mamlakatlari ichida eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga ega. Sanoatning elektronika, elektrotexnika, kemasozlik, neftni qayta ishlash, kimyo, farmasevtika tarmoqlari yaxshi rivojlangan va eksportga y o'naltirilgan. Sanoat uchun xomashyo resurslari qo'shni davlatlardan import qilinadi. Axborot texnologiyalari va biotexnologiya sohalari ham Singapur katta yutuqlarga erishgan. Xalqaro transport va bank-moliya xizmatlarini ko'rsatish, turizm sohalari ham Singapur uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Singapur shahri dunyodagi eng yirik portlardan biri hisoblanadi (74-rasm).



74-rasm. Singapur porti.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. Indoneziya, Malayziya va Singapurning iqtisodiy geografik o'rnlari qanday jihatlari bilan o'zaro o'xshash?
2. Indoneziya, Malayziya va Singapurning iqlimiga qanday xususiyatlar xos?
3. Uchta davlat aholisining etnik va diniy tarkibini taqqoslang.

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** Uchta davlatning har birini iqtisodiy rivojlanishi uchun qanday omillar muhimligini aniqlang va taqqoslang.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

*vab-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

**Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi**

**38 listdan iborat geografiya fanidan 9-sinf IV chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.**



**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyeu Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi. To'liq holda olganingizdan so'ng: Faqat o'zingiz uchun foydalaning. Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham. Internet orqali vab-saytlarga joylamang. Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**